

AXLOQIY TARG'IBOTDAN - TIZIMLI ISLOHOT SARI

*Uroqova Sokina Xudoyshukur qizi**Surxondaryo viloyat Muzrabot**tumani 15-maktab psixologi*

Annotatsiya: Korrupsiya haqida hammamiz eshitganmiz. Lekin uni faqat tepadagilarning “o‘yini” deb bilish - o‘z haq-huquqimizdan ko‘z yumishdir. Ushbu maqola korrupsiyani faqat muammo sifatida emas, balki jamiyatning yuragiga singib ketgan “sukutdagi kasallik” sifatida ko‘rib chiqadi. Unda korrupsiyaning ko‘zga ko‘rinmas ildizlari, kundalik hayotimizdagi yashirin ta’siri, va eng muhimi - undan xalos bo‘lish yo‘llari haqida jonli, tushunarli va tahliliy tarzda so‘z yuritiladi. Raqamlar ortidagi haqiqat, qonunlar ortidagi irodasizlik va jimjitlik ortidagi imkoniyatlar - barchasi bu maqolada tahlil qilinadi. Halollik faqat axloqiy fazilat emas - u jamiyatning yashab omon qolish strategiyasidir-, degan fikr ilgari suriladi. Maqola fuqarolik ongini uyg‘otishga, befarqlikni sindirishga va har bir o‘quvchini “men nima hissa qo‘sha olaman?” degan savolga olib kelishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, jamiyat, halollik, siyosat, fuqarolar, iqtisodiyot, moliya

Korrupsiya... Bu so‘zni eshitganimizda ko‘z oldimizda birdaniga silliqqina kostyum kiygan amaldor, stol ostidan “hurmat” olayotgan mas’ul, yoki faqat “tanish-bilish” orqali hal bo‘ladigan muammo paydo bo‘ladi. Go‘yoki bu holat hayotimizning ajralmas bir qismi, qon-qonimizga singib ketgandek. “Boshqalar ham shunday qilayotgan bo‘lsa, menga nima?” - degan fikrlar ongimizda odatiy holga aylangan. Holbuki, aynan shu befarqlik, ko‘nikish va e’tiborsizlik korrupsiyaning eng xavfli shaklidir.

Korrupsiya ko‘pincha yirik siyosatchilar, mansabdorlar yoki xalqaro tenderlar atrofidagi mojarolar bilan bog‘lanadi. Ammo aslida u oddiy fuqaroning hayotiga har kuni, har soatda, hatto tug‘ilganidan boshlab ta’sir qiladi: tug‘ilganlik haqidagi guvohnomadan boshlab, universitetga kirish, ishga joylashish, tibbiy xizmat olish, hatto pensiyaga chiqishgacha bo‘lgan yo‘l - poraxo‘rlikning maydoniga aylangan.

Ammo bu holatni "odatiy" deb qabul qilish, jamiyatning halokat sari yo‘l olishiga rozilik bildirgan bilan barobar. Zero, korrupsiya - bu faqatgina biror mablag‘ning o‘zlashtirilishi emas, balki umidlarning o‘g‘irlanishi, imkoniyatlarning sotilishi, adolatning sotuvga qo‘yilishi demakdir.

Korrupsiya nima o‘zi degan savolga bitta qilib biron narsa deyish qiyin. Dunyo aholisining katta qismi- an’anaviy so‘rov ma’lumotlariga ko‘ra- korrupsiya nisbatan keng tarqalgan davlatlarda yashaydi. Ya’ni ular o‘zlariga kerak bo‘lgan va ehtimol,

qonuniy haqli bo'lgan davlat xizmatini olish uchun pora to'lashmi yoki axloqiy nuqtayi nazarni saqlab, bu xizmatdan butunlay voz kechishmi degan ikki qarama qarshi fikr bilan yuzlashadilar. Ta'rif berishda, odatda, korrupsiyaning aniq misollaridan boshlash foydalidir. 2011-yilda Hindistonning eng ko'p aholiga ega shtati – Uttar-Pradesh sog'liqni saqlash vaziri Milliy qishloq sog'liqni saqlash missiyasi mojarosi deb nom olgan ish bo'yicha ayblandi. Ushbu holatda shtatning qishloq aholisi uchun sog'liqni saqlash muassasalarini rivojlantirishga ajratilgan taxminan 100 milliard rupiy (1,5 milliard AQSh dollari) mablag' o'zlashtirilgan edi.

Keyingi yili, AQShda, Illinoys shtati gubernatori Rod Blagojevich AQSh Senatidagi bo'sh o'rindiqlardan birini eng yuqori taklif bergan kishiga sotmoqchi bo'lganlikda ayblanib, javobgarlikka tortildi.

Yuqorida keltirilgan raqamlar kimningdir 'cho'ntagiga' zarar, bu bilan mening ishim yo'q yoki nimayam qilardik qonimizda bor kabi so'zlarni eshitib ulg'ayganmiz. Lekin bu kabi firibgarlik individual muammo emas, balki butun bir jamiyatning tashvishidir. E'tiborga ilinmas qo'sh- qo'sh raqamlarning ostida xalqning befraqligi yotadi. Platonning "Respublika" asarida shunday bir fikr bor:

"Siyosatga qiziqmagan xalqni, xalq bilan qiziqmaydigan siyosatshunoslar boshqaradi."

U bu fikrni jamiyatni boshqarishning adolatli bo'lishini ta'minlash uchun siyosatga befarq bo'lgan xalq o'z taqdirini yomon boshqaruvchilarga topshirishidan xavotirda bo'lib aytgan. Platon, shuningdek, davlatni boshqarishda faqat filosof-siyosatchilarning bo'lishi kerakligini, chunki ular faqat adolatni va haqiqiy bilimni tushunib, xalqning yaxshilanishi uchun ishlashlari kerakligini ta'kidlagan.

Shubhasiz, korrupsiyaning ildizi chuqur, uning jamiyatga yetkazayotgan zarari esa chuqurroqdir. Ammo so'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu illatga qarshi kurashish borasida jiddiy qadamlar tashlanmoqda.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020 yil 4 fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan bugungi kunda:

- Ombudsmanning "10-96" ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;
- fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo'yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to'g'risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.
- Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo'l-yo'riqlarni tushuntirish, xizmat

vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, ta'qiqlar, cheklovlar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi.

– Vakilga korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan murojaatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020 yilning 6 oy davomida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Ombudsman tomonidan Bosh prokuraturaga 17 ta murojaat yuborilgan (2019 yil – 21 ta). Ushbu murojaatlardan 2 tasi o'z tasdig'ini topgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga Qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishchora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son Farmoni bu boradagi izchil sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Korrupsiya bo'yicha jazolanganlar soni: 2023 yilda O'zbekistonda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha 6,535 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan. Bu 2022 yilga nisbatan 12% kamayishni anglatadi (7,414 nafar).

Qayta jinoyat sodir etganlar: Shundan 1,146 nafari ilgari sudlangan bo'lib, ularning 566 nafari aynan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun sudlangan.

Korrupsiya bo'yicha jazolanganlar soni: 2023 yilda O'zbekistonda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha 6,535 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan. Bu 2022 yilga nisbatan 12% kamayishni anglatadi (7,414 nafar)

Albatta, korrupsiya ildiz otgan jamiyatda uni butunlay yo'qotish vaqt va qat'iyat talab etadi. Shu sababli, bugungi kunda bu illatga qarshi tizimli kurash olib borilmoqda.

- Hukumat xizmatchilarining maoshlarini oshirish korrupsiyani kamaytirishda samarali bo'lishi mumkin, lekin bu chora qat'iy nazorat va korrupsiyani odatiy hol sifatida qabul qiladigan normalarni o'zgartirish harakatlari bilan birga olib borilgandagina natija beradi.
- Korrupsiyaga qarshi kurashni kuchli nazorat va ijro orqali amalga oshirish, nazoratchilar va ijrochilarning o'zlari korrupsiyaga berilmasligi masalasini ham kun tartibiga olib chiqadi.
- Maxsus va mustaqil korrupsiyaga qarshi organlar, hatto korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan sharoitlarda ham, ommaviy qo'llab-quvvatlov bo'lgan taqdirda, yaxshi natijalar bergan.

- Biometrik identifikatsiya kabi texnologiyalar hukumat dasturlari va saylovlarda korrupsiyani cheklash imkoniyatini beradi. Ammo bu texnologiyalar, ulardan zarar ko‘rishi mumkin bo‘lgan tomonlar tomonidan izdan chiqarilishi ham mumkin.
- Erkin matbuot korrupsiyani fosh qilish va islohotlarga bo‘lgan jamoatchilik qo‘llab-quvvatlovini kuchaytirishda foydalidir. Biroq, dunyoning ko‘plab hududlarida OAV bevosita yoki bilvosita hukumat nazoratida bo‘ladi.
- Ijtimoiy tarmoqlar, pastdan yuqoriga qarab amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi harakatlarni muvofiqlashtirish va umumiy xabardorlikni shakllantirishda ayniqsa istiqbolli vosita hisoblanadi.
- Samarali yetakchilik, jamiyatdagi korrupsiya bilan bog‘liq normalarni yuqoridan pastga o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi, shuningdek, oddiy fuqarolarning keyingi harakatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Korrupsiya faqat moliyaviy zarar emas, balki jamiyat uchun katta talofatdir. U har bir fuqaroga bilvosita va bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun, buni oldini olishga butun bir jamiyat harakat qilishi kerak. O‘zbekiston bu borada jiddiy islohotlarni boshlab yuborgan: qonunchilik, raqamlashtirish, ochiqlik va erkin matbuot kabi yo‘nalishlarda sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Biroq, bu kurashda faqat tizim emas, balki har bir insonning mas’uliyati va halollik tamoyillari ham muhim o‘rin tutadi. Asosiysi - loqayd bo‘lmaslik, adolatni qadrlash va jamiyatda halollik madaniyatini shakllantirishga o‘z hissamizni qo‘shishga harakat qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.brookings.edu/>
2. <https://www.transparency.org/en/>
3. Platon ‘Respublika’ asari
4. <https://ombudsman.uz/uz>